

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
<b>1. Сейтов Азамат</b> ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
<b>2. Xolbekov Abdug‘ani</b> ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
<b>3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo</b> DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
<b>4. Abduraxmonova Manzura</b> KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
<b>5. G‘afforova Mavlyuda</b> SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
<b>6. Seitova Zuhra</b> AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
<b>7. Alikariyeva A‘loxon</b> TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
<b>8. Kamalova Khatira</b> QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI.....	60
<b>9. Якубов Ильдар</b> ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
<b>10. Burxanov Xusniddin</b> RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
<b>11. Hojiyev Zavqiddin</b> IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
<b>12. Axmedova Feruza</b> TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
<b>13. Akramov Xusan</b> ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
<b>14. Axmedov Qaxramon</b> IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHA TLARI.....	112
<b>15. Raximova Shaxnoza</b> AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
<b>16. Xaydarova Javohira</b> RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH.....	131

<b>17. Kamilov Farxod</b>	
INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
<b>18. Razzakova Nargis</b>	
MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
<b>19. Axmedova Ra'no</b>	
O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
<b>20. Мирзаева Шахноза</b>	
ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
<b>21. Вахидова София</b>	
ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
<b>22. Bozorova O'limaxon</b>	
IJTIMOYIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
<b>23. Ruyiddinova Aisha</b>	
INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
<b>24. Tursunboyev Jahongir</b>	
SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
<b>25. Raximbayeva Oftobxon</b>	
ZAMONAVIY RAHBARLARDA KASBIY VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
<b>26. Sharopov Sadriddin</b>	
INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
<b>27. Burxanov Xusniddin</b>	
RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
<b>28. Mamaziyaeva Nargiza</b>	
O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
<b>29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Sharopov Sadriddin,**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi  
“Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiya”  
kafedrasida mustaqil izlanuvchisi  
email: sharopovsadriddin3@gmail.com

### INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18355017>

#### ANNOTATSIYA

Maqolada yosh rahbarlar boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda intellektual salohiyat omilining tahlili keltirilgan. Intellektual salohiyat tushunchasi fanlararo tadqiqotlar ob’ekti sifatida izohlangan. Zamonaviy boshqaruvchilik faoliyatda aqliy mehnat turi sifatida yuqori bilim va ko‘nikmalar uyg‘unligini talab etadi. Shu bois, maqolada intellekt tushunchasi tafakkur mahsuli sifatida batafsil tahlil qilinib, intellektual salohiyatni shakllantiruvchi omillar kesimida ochib berilgan. Shuningdek, rivojlangan davlatlarda kishining aqliy salohiyati IQ o‘lchov birliklari sifatida statistik ko‘rsatkichlarda berilgan. Intellektual salohiyat, turli komponentlar yig‘indisi sifatida kognitiv sotsiologiya yutuqlari qatorida tavsiflangan. Ushbu omilning boshqaruv sohasida samara berish imkoniyatlari metodologik asoslab berilgan. Maqola matnida o‘rganilayotgan ilmiy masalalar borasida yanada tushunarli va lo‘nda mazmun kasb etishi maqsadida chizmalarda taqdim etilgan. Bu borada shakllangan ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda uslubiy ahamiyat kasb etuvchi ilmiy xulosalarga kelingan. Intellektual salohiyatni yanada rivojlantirish orqali boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** intellekt, rahbar, salohiyat, kognitiv, intellektual salohiyat, IQ, aql, hissiyot, iroda, kompetensiya, professionallik, yetuklik, bazaviy qiymat, fundamental omil, zanjir effekti, tizim, komponent, aqliy mehnat, innovatsion intellekt, shaxsiy qobiliyat, liderlik, akkumulyatsiyalash, integratsiyalash, intellektuallar komandasi.

**Шаропов Садриддин,**

Соискатель кафедры “Социология управления и психология” Академии  
государственной политики и управления  
при Президенте Республики Узбекистан  
email: sharopovsadriddin3@gmail.com

### ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ – КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МОЛОДЫХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ

#### АННОТАЦИЯ

В статье представлен анализ фактора интеллектуального потенциала молодых руководителей в развитии управленческих навыков. Понятие интеллектуального потенциала трактуется как объект

междисциплинарных исследований. Современное менеджмент как вид умственного труда в деятельности требует высокого сочетания знаний и умений. Поэтому в статье подробно анализируется понятие интеллекта как продукта мышления и раскрывается в разрезе факторов, формирующих интеллектуальный потенциал. Также в развитых странах психический потенциал человека дается в статистических показателях как единицы измерения IQ. Интеллектуальный потенциал, как совокупность различных компонентов, был описан в серии достижений когнитивной социологии. Возможности этого фактора для достижения эффекта в области управления методологически обоснованы. Текст статьи представлен в виде рисунков с целью придания более понятного и лаконичного содержания исследуемым научным вопросам. Были сделаны научные выводы, имеющие методологическое значение, обобщающие сформировавшиеся, в связи с этим научные взгляды. Посредством дальнейшего развития интеллектуального потенциала формируются практические предложения и рекомендации по совершенствованию управленческой деятельности.

**Ключевые понятия:** интеллект, лидер, потенциал, познавательный, интеллектуальный потенциал, IQ, интеллект, эмоции, воля, компетентность, профессионализм, зрелость, базовая ценность, фундаментальный фактор, цепной эффект, система, компонент, умственный труд, инновационный интеллект, личные способности, лидерство, накопление, интеграция, команда интеллектуалов.

**Sharopov Sadridin,**  
Applicant of the Department of  
“Sociology of Management and Psychology”  
of the Academy of Public Policy and Management  
under the President of the Republic of Uzbekistan  
email: sharopovsadridin3@gmail.com

## INTELLECTUAL POTENTIAL – AS A FACTOR OF MANAGEMENT EFFICIENCY OF YOUNG MANAGERS

### ABSTRACT

The article presents an analysis of the factor of intellectual potential of young managers in the development of managerial skills. The concept of intellectual potential is interpreted as an object of interdisciplinary research. Modern management as a type of mental labor in activity requires a high combination of knowledge and skills. Therefore, the article analyzes in detail the concept of intelligence as a product of thinking and reveals it in terms of factors that form intellectual potential. In developed countries, the mental potential of a person is also given in statistical indicators as a unit of measurement of IQ. Intellectual potential, as a combination of various components, has been described in a series of achievements in cognitive sociology. The possibilities of this factor for achieving an effect in the field of management are methodologically substantiated. The text of the article is presented in the form of drawings in order to make the scientific issues under study more understandable and concise. Scientific conclusions of methodological significance have been made, summarizing the scientific views that have been formed in this regard. By further developing the intellectual potential, practical proposals and recommendations for improving management activities are being formed.

**Key concepts:** intelligence, leader, potential, cognitive, intellectual potential, IQ, intelligence, emotions, will, competence, professionalism, maturity, basic value, fundamental factor, chain effect, system, component, mental labor, innovative intelligence, personal abilities, leadership, accumulation, integration, team of intellectuals.


### KIRISH

Intellektual-kasbiy salohiyatli kishilar o‘z mohiyatiga ko‘ra jamiyatning ilg‘or va etakchi qatlami bo‘lib, mamlakat taraqqiyotiga zarur bo‘lgan innovatsion g‘oyalarni amalga oshiruvchi mas‘ul guruh hisoblanadi. Qaysidir bir davr yoki jarayonda ushbu omilga nisbatan regress holatida, sust munosabat paydo bo‘lsa, ma‘lum vaqt o‘tib shu jamiyat taraqqiyoti inqirozni boshdan kechiradi.

Intellektual salohiyat o'z nomidan kelib chiqib "intellekt" atamasiga borib taqaladi. Lotin tilidan olingan "intellego" yoki "intellectus" – his etmoq, sezmoq, ta'sirlanmoq, anglamoq, bilmoq, tafakkur qilmoq, farqiga bormoq degan ma'nolarni anglatadi [1]. R.Linn intellekt va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasida aloqadorlikni o'rganar ekan; "Intellekt individual daromad ko'rsatkichini belgilovchi omil va mintaqalar kesimida aholining o'rtacha intellektual salohiyati jonboshiga daromad ko'rsatkichini oshib borishini belgilaydi", deb hisoblaydi. 113 davlatda intellektual salohiyatni (IQ) o'rtacha 100 ballik tizim bo'yicha o'lchash natijalariga ko'ra, turli millat vakillarining intellektual salohiyati o'rtasida tafovutlar borligi aniqlandi. Ushbu tadqiqotda intellektual salohiyat ko'rsatkichi Sharqiy Osiyo davlatlari (Xitoy, Yaponiya, Koreya) aholisi 105 ball bilan egalladi. Evropa davlatlarida bu ko'rsatkich o'rtacha 99 ballni tashkil qildi [2, – B. 92]. Shu bois, intellekt irsiy omil bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kishidagi aqliy salohiyatning 80% avlodlar orqali ta'minlanadi.

### METODOLOGIYA

E.Golovchanskaya intellektni individning anglash qobiliyati va idrok jarayoni sifatida tavsiflar ekan, uning innovatsion iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini intellektual zahiralarni jadal rivojlantirishda ko'radi. Intellektni ko'p qirrali va murakkab anglash jarayoni sifatida quyidagi turlarini (1-rasm) alohida ko'rsatamiz [3, – B. 18-19]:



**1-rasm. Intellekt shakllarining turkumlanishi.**

A.Evkoovning ko'rsatishicha, intellekt kishining voqelikni anglab etishda barcha qobiliyatlarini birlashtiradi. Uning yordamida kishi fikrlaydi, yangi axborotni xotirasida saqlab qoladi, atrof muhitni idrok etadi [4, – B. 76]. Frantsuz psixologi Piajening fikriga ko'ra "intellekt bu yangicha sharoitga ruhan moslashish bo'lib, u go'yoki jonli organizmning tashqi muhitga moslashish ehtiyoji kabi insonning kognitiv (aqlan) moslashish imkoniyatlari ko'lamini anglatadi"[5, – B. 85]. Kishidagi intellektning bosh xususiyati shundaki, tashqi dunyodan qabul qilib olinayotgan har qanday mazmun, mohiyat o'zlashtirilmaydi, aksincha individning ichki dunyosiga munosib qismiga olinadi.

Piaje intellektning rivojlanish bosqichlari haqida gapirar ekan uning 4 bosqichda kechishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, intellektning rivojlanish bosqichining birinchi davri 0 yoshdan 2 yoshgacha davom etadi. Keyingi bosqich 2 yoshdan 8 yoshgacha, uchinchi bosqich esa 8 yoshdan 12 yoshgacha va to'rtinchi bosqich 12 yoshdan boshlanib kishining butun umri davomida sodir bo'ladi. Ko'rib turganimizdek, kishida intellektning rivojlanishi muayyan yosh davri bilan chambarchas bog'langan. Ammo, ta'lim intellektning rivojlanishini tezlashtirishi mumkin. Ta'limdan chetda qolish esa intellektning rivojlanishida uzilishlarga sabab bo'ladi. Piaje uchun intellekt kishi rivojlanishining barcha darajalarida hulq atvorning tartiblovchilik vazifasini o'tasa, boshqa olimlar (A.Bine, L.Veksler) intellektni kishining ta'lim olish layoqati, yangi bilim, ko'nikma hosil qilish qobiliyati sifatida baholaydilar[6, – B.35]. Boshqa manbalarda intellekt –

aql ma'nosini anglatib - bu ruhiyatga xos sifat, xususiyat bo'lib, yangi vaziyatlarga moslashish ta'lim olish qobiliyati, tajriba asosida xotirada saqlash, mavhum kontseptsiyalarni anglash va ularni qo'llay bilish, o'z bilimlaridan insonni o'rab turgan atrof-muhitni boshqarishda foydalana olish qobiliyatidir deb keltiriladi. Demak, intellekt – insonning his etish, anglash, xotira, tasavvur, tafakkur qilish, diqqatni jamlash, irdrok etish va reflektiv xususiyatlarining yig'indisidir. Intellektual – yoki aqlli inson – aqliy qobiliyati yuksak daraja rivojlangan shaxs bo'lib, odatda ular aqliy mehnat bilan band bo'ladilar.

### ASOSIY QISM

Intellekt so'zining mazmuni o'zbek tilidagi adabiyotlarda – aql, idrok, zakovat yoki aqliy jihatdan etuklik sifatida keladi [7, – B.394]. “Intellekt, olingan ma'lumotlarni (mehnat predmetini) tartibga solish va oqilona umumlashtirishni o'zida ifodalaydigan inson qobiliyati tizimi bo'lib, u o'z egasidan begonashmagan va intellektual ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi” [8, – B.12]. G.N.Artamonov intellektning funktsional tizimosti turlarini qo'yidagicha tavsiflaydi: verbal intellekt, mantiqiy intellekt, intellektual-hissiy, intellektual-irodaviy, psixologik, mulohazali, madaniy, sotsial, nazariy, estetik, ahloqiy, ongli, ma'naviy [9, – B.110]. Intellektning har qanday turiga xos tafakkur tarzi va usullari bo'lib, ularning yig'indisidan alohida shaxsga xos intellekt moduli hosil bo'ladi. Ammo, intellektning har bir turi bitta shaxs tafakkurida zanjir effekti asosida uzviy bog'langan. Insonning intellektual salohiyatini hosil qilgan ushbu zanjir elementlaridan biridagi nuqson boshqalarida izziz ketmaydi. Intellekt turlarining muvofiqlashganligi aqlning etukligidan dalolat beradi. Funktsional tizim sifatida uning elementlaridan birida sustlashish intellekt darajasi va “aql-hissiyot-iroda” uchligi mutanosibligining buzilishiga olib keladi.

V.Proshak intellektual salohiyat atamasiga quyidagicha ta'rif beradi: “Jamiyatning intellektual salohiyati individlarning intellektual vositalarini moddiylashtirib foydalanishi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun erishilgan va ijod qilingan yangi bilimlarni o'zlashtirishi imkoniyatini beruvchi kasbiy ma'lumoti darajasidagi ijodkorlik qobiliyatlari majmuidir” [10, – B.6]. N.I.Xasanxonova “Intellektual salohiyatning o'sishi bir tomondan, ilm-fanning zamonaviy va texnik jihozlanish jihatidan ham harajat talab qiladigan texnika va uskunalar (kosmik stantsiyalar, radioteleskoplar, superkompyuterlar va boshqalar) bilan ta'minlanishiga, ikkinchi tomondan, ilmiy, texnik, boshqaruvchi xodimlar, muxandislar, turli sohalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga turtki bo'ladi. YUqoridagilar asosida biz, jamiyat intellektual salohiyati tushunchasini insoniy, moddiy va moliyaviy resurslar asosida ilm va ta'lim tizimida yangi bilim, texnologik mahsulot yaratilishigacha xizmat kiluvchi katlam sifatida tushunamiz”, deb yozadi [11].


Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, davlatni rivojlantirishda ilmiy salohiyatdan bepul foydalanish, yoki yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan ilmiy xodimlardan foydalanish asosida (Amerika iqtisodiyoti misolida) iqtisodiyotning tayanch nuqtasini shakllantirish, yoki mavjud salohiyatdan, milliy qadriyatlardan kelib chiqib (YAponiya iqtisodiyoti misolida) texnologik yangilanish yo'lidan bormoq lozim, deb aytishimiz mumkin. Lekin birinchisi ham, ikkinchisi ham tarixiy tavsifga ega bo'lgan ko'rsatkichlardir. Rivojlangan mamlakatlar qatorida yaxshilab o'rinish olish uchun o'z ilmiy salohiyatini hamda texnik xodimlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim.

Intellektning mazmun mohiyatini ochib berishga qaratilgan ta'riflar va yondashuvlarni umumlashtirib, bugungi kunda ushbu ilmiy kategoriya fanlararo kesimda 3 ta yo'nalishda turkumlanib tavsiflanishini ko'ramiz, Bular quyidagilardan iborat:

- 1) Biologik tavsif: yangicha vaziyatga ongli moslashish layoqati.
- 2) Pedagogik tavsif: ta'lim olish layoqati, o'qitilish.
- 3) Tuzilmali yondashuv: vositalarning maqsadga moslashish layoqati, yoki u yoxud bu layoqat, qobiliyatlarning yig'indisi [12, – B.32]. S.P.Lapaev va A.A.Esenbaevalarning fikriga ko'ra, intellektual salohiyat ikki qismdan iborat bo'ladi. Bular: a) realizatsiya etilgan (hayotda tatbiq etilgan); b) realizatsiya qilinmagan salohiyat. Vaholanki, realizatsiya qilinmagan salohiyat realizatsiya qilingan salohiyatdan qolishmaydigan kuchga ega bo'lishi mumkin. Intellektual salohiyat rivojlanishi uchun mavjud bilim va ko'nikmalar rivojlanish holatiga o'tishi kerak bo'ladi. Rivojlanish holatidagi salohiyat esa aniqlangan holatga o'tishi va realizatsiya bosqichiga o'tishi talab etiladi.

T.Styuart intellektual salohiyatni kompaniya ishchi xodimlari bilimining yig'indisi sifatida oladi. Ular kompaniyada raqobatbardosh muhitni shakllantiradi. V.G.Zinov va K.V.Safaryanlar esa biznesning bazaviy qiymati nomoddiy aktiv sanalgan intellektual salohiyat evaziga shakllanishini aniqlaydi. Shu bois, intellektual salohiyat keng ma'noda davlat, mintaqa, jamoa, insonning ilm-fan, texnika va ma'naviy-ma'rifiy sohalarida

noyob yutuqqa erisha olish imkoniyatlari yig'indisi sifatida olinadi. Davlat yoki mintaqaning intellektual salohiyati asosida aholining intellektual salohiyati turadi. Ta'lim zamonaviy taraqqiyotni ta'minlashda bosh omil sanalgan intellektual salohiyatni shakllantiruvchi institut rolini bajaradi (2-rasm). Ta'lim iqtisodiyot rivojining fundamental omili bo'lib, u avvalambor bilimga tayanadi.



**2-rasm. Intellektual salohiyat komponentlarining o'zaro aloqadorligi.**

Ko'rinib turibdiki intellektual salohiyat ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi. Jamiyat intellektual salohiyatning shakllanishiga ishlab chiqarish usullarining ta'siri va undan foydalanish imkoniyatlarini belgilab beradi. Bu esa ta'lim darajasi va uning sifati bilan amalga oshiriladi. Yangi davr kadrlarini shakllantirish, ularni zamon talablari asosida tizimga moslashtirish izchillik bilan amaliyotga joriy etilishi bosh masala bo'lib hisoblanadi.

H.YO'rqulov intellektual salohiyatni "jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy guruhlar, ularning bilim darajasi, aqliy qobiliyati, to'plangan ilmiy bilimlar, kashfiyotlar, ularni ishlab chiqarishga va ijtimoiy hayotga etkazish vositalari hamda imkoniyatlarini belgilovchi ma'naviy, ma'rifiy va moddiy kuch-quvvat", deb ta'riflaydi [8, – B.14].

Jamiyatning intellektual salohiyati – bu uning g'oyalarni generatsiya qilish imkoniyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga yangiliklar kiritishi va bu bilan ilgari harakat qilish uchun sharoitlar yaratishidir [13, – B.234]. Texnologik jarayon insonning ta'lim, ilmiy (yangi bilimlar) va texnik (kashfiyotlar, konstruksiyalash) faoliyati bilan ta'minlanadigan texnogen tsivilizatsiya sharoitida fan va texnologiya sohasida inson kapitalidan foydalanish, ya'ni olimlar, muhandislar, konstruktorlar, texniklar, yuqori malakali ishchilar faoliyati moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirishning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda. Shulardan kelib chiqib, biz intellektual salohiyatga o'zimizning quyidagi ta'rifimizni keltirdik: "Intellektual salohiyat ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u o'zida aqliy qobiliyatni va ijodkorlikni namoyon qiladi hamda va innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy tajribani qabul qiladi, voqea-hodisalarni amaliy tajriba asosida baholab, ilmiy prognoz beradi va mushohada qiladi".

Intellektual salohiyat – bu inson tafakkurining qisqa fursatda va aniq faollashish holati bo'lib, kishining yangi bilim, intellektual ko'nikma va malakalarni yuqori tezlikda o'zlashtirishini ta'minlaydi. Ammo, intellektual salohiyat maxsus ta'lim yoki kasbiy tajribasi bo'lmagan ishchi-xodimlar faoliyati samaradorligini kafolatlamaydi [14]. Kishining intellektual salohiyati multidistsiplinar tadqiqot ob'ekti bo'lib, kognitiv paradigmalar olamini shakllantiradi. Bunda kognitologiya tayanch yo'nalish sifatida iqtisodiyot, sotsiologiya, lingvistika, kibernetika, mantiq, psixologiya fanlari yutuqlaridan shakllandi va sohalararo majmuaviy ilm-fan tarmog'i sifatida rivojlandi. Kognitologiya yunoncha "*cognitio*" – bilish, "*logos*" – ta'limot bo'lib, bilim olish, uni tashkil qilish va foydalanish haqidagi fan hisoblanadi [9]. G.Artamanovanning fikriga ko'ra: "Kognitologiya ijtimoiy-gumanitar fanlarni yaxlit paradigma, ya'ni, intellekt haqidagi fan atrofida birlashtirdi" [15, – B.89]. Intellektual salohiyatning kognitiv paradigmalari atrofida birlashgan fanlar bilim, tafakkur,

intellektni ilmiy o'rganishni maqsad qilib oladi. Shuningdek, u bilimlarni boshqarish, tashkiliy ta'lim, kommunikatsiyalarni kognitiv boshqaruv, qadriyatlarini boshqarish kabi tarmoqlarga taqsimlanadi.

Kognitologiyani tavsiflagan U.T.Louson intellekt, tafakkurni "sotsial mavjudot akti" sifatida tavsiflaydi va qator ijtimoiy-gumanitar fanlar kognitiv paradigmalari xususiyatlarini ochib berishda turlicha yondashishlarini ko'rsatadi. Uningcha kognitologiya "kognitiv jarayonlarni tadqiq etish asosida uning mohiyatini izohlovchi nazariyalarni yaratuvchi fanlar turkumidir" [16, – B.85]. 1960 yillarda kognitiv paradigmalari ta'sirida I.S.Ladenko intellektual tizimlar nazariyalarining metodologik masalalari, YU.A.Shreyder xodim intellekti xususiyatlari, A.N.Kochetova jamiyatining intellektual salohiyati, S.I.Vovkanich va N.A.Parfetsevalar esa sotsial intellekt haqida o'z ilmiy tadqiqotlarini olib bordilar.

Kognitologiya atamasini ilmiy iste'molga A.Sikuler kiritib, uning tarmoq yo'nalishi bo'lgan kognitiv boshqaruv jamiyatining intellektual salohiyatini boshqarish qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib shakllandi. Ushbu tarmoq kollektiv intellektni o'rganish ob'ekti sifatida oladi. Demak, intellektual salohiyat nafaqat ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida tor doirada o'rganilmasdan, tarmoq yo'nalishi sifatida boshqaruv kadrlarini tayyorlashda o'z hissasiga ega bo'lmoqda. Bunda "bilimni boshqarish", "inson katipali", "inson resurslari", "intellektual salohiyat", "ta'lim salohiyati" kabi ilmiy kategoriyalarning ijtimoiy iqtisodiy talqini ishlab chiqildi. Unga ko'ra, kognitiv boshqarish ta'lim, fan, madaniyat institutlari faoliyatini tashkil etish va boshqarish muammolari qamrab oladi. Zero, ushbu institutlarda mavjud sotsial aloqa va munosabatlar bilim, intellekt va kognitiv jarayonlar birligi bilan shartlangan. Ular jamiyatning kognitiv ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ushbu sotsial institutlarda "bilimlarni o'stirish" jarayoni kognitiv munosabatlar bilan sug'orilgan va ularda faoliyat yuritayotgan individning intellektual salohiyati kognitiv yutuqlar darajasiga ko'ra baholanadi.

Aynan kognitiv boshqaruv doirasida ilmiy ishlarini olib borgan M.V.Suxarev individual va sotsial intellektning introsotsialligini o'rganar ekan, "shaxsning atrof muhit ta'sirida shakllangan g'oyalari, individual noyoblik kasb etadi va "olaning kognitiv modeli"ga aylanadi, deb hisoblaydi. Jamoaviy faoliyat taqsimlangan kognitiv model tomonidan tartiblansa, individual tafakkur guruhli intellekt bilan intellektual kommunikatsiya orqali tavsiflanadi" [17, – B.29-33]. Vaholanki, intellektual salohiyatni kasbiy nuqtai nazardan rivojlantirish va shakllantirib borishda mavjud manbalar, unga ta'sir qiladigan sotsial omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Intellektual salohiyatli jamiyatga erishish jarayoni yuqori texnologiyalar, ma'naviy, ta'lim va ijtimoiy hayotdan tortib iqtisodiy - ishlab chiqaruvchilik sohalarida texnologik o'sish bilan shartlanadi. Bunday jarayon avvalo ta'lim tizimiga bo'lgan ehtiyojni oshirib, "ta'lim+jamiyat" qurilishiga turtki beradi. Ushbu jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch esa intellektual elita bo'lib, ular jamiyat intellektual darajasini o'stirish va madaniy elita qatlamini kengaytirishda asosiy mexanizm rolini o'taydi. Ammo so'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar, ilmiy, ta'limiy jamiyatlar tomonidan o'tkazilgan baholashlarga ko'ra, maktab o'quvchilari, talabalar va yosh mutaxassislarda intellektual salohiyat keskin sustlashib, kognitiv va madaniy izdan chiqish kuzatilmoqda [18, – B.560]. Shu sababli, boshqarishda yangi funktsiya ya'ni, "bilimni boshqarish" g'oyasi ilgari surildi.

Tashkilotlarni boshqarish sohasida esa bilimni boshqarish, bilimni o'stirish markazlarini tashkil etish masalasi dolzarblashdi. Intellektual kapital tushunchasi ishlab chiqilib, u taraqqiyotning etakchi omili sifatida tan olindi. Bunda, uni akkumulyatsiyalash, inegratsiyalash, intellektual komandasi ("aqliy mehnat vakillari")ni shakllantirish vazifalari ilgari surildi. Zero, L.V.Erushkina ta'kidlaganidek: "intellektual kapital mahsuldorligi innovatsion intellekt tashuvchisi sanalgan xodimlarni tanlab olish muammolarining yechimi bilan bog'liq.

"Shaxsiy salohiyat" tushunchasining ilmiy iste'molga kiritilishi aynan qayd etilgan masalalar bilan shartlangan" [19, – B.16]. Shaxsiy salohiyat esa kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kreativ qobiliyat, ijodiy fikrlash, g'oyalarni ishlab chiqish, tahliliy, tanqidiy, muammoli fikrlash yig'indisidan hosil bo'ladi. Boshqa tadqiqotlarning ko'rsatishicha, har qanday mehnat jamoasida xodimlarning 2/3 qismi kreativ emas, reproduktiv tafakkur sohiblari bo'lib, ularda ijodiy fikrlash, innovatsion faoliyat va yangi g'oyalar yaratishga qodir emas [20, – B.253]. Ularda o'rtacha yoki past intellektual qobiliyat, bilim va kompetentlik kuzatiladi.

"Intellektni" boshqarish nazariyalarida esa obyektivlashtirilgan yaqqol va subyektivlashtirilgan - yashirin intellekt o'rtasidagi tafovut aniqlangan. Ya'ni, obyektiv mezonlar asosida xodimning me'yoriy ahamiyatli intellektual salohiyatini baholash mumkin. Ammo, bunda subyekt intellektida mujassamlashgan

va uning ijodiy faoliyati o'zagini tashkil etuvchi va turli bilim, tajriba o'rtasidagi chuqur aloqadorlikni ta'minlovchi yashirin qobiliyatni baholash metodikalari mavjud emas. Shu bois, zamonaviy mehnat jamoalarida xodimlar intellektining yopiq qirralarini ochish usullarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiy nazariyalarda bunday muammo ko'ndalang turmaydi. Sababi, iqtisodiy pragmatizm kognitiv yondashuvni istisno etib, xodimlar intellektual salohiyatini baholashda me'yorlashgan attestatsiya protsedurasiga tayanadi. Bunda xodimning professionalligi, intellektual salohiyati samaradorligi moddiy rag'bat, maqsadli moliyalash, ilmiy tadqiqotchilarni individual taqdirlash, grantlarni moliyalash tizimi asosida rag'batlantiriladi. Boshqaruv an'anaviy kontsepsiyalarida ham xuddi shunday yondashuv dominantligi kuzatiladi.

Tadqiqotchilar hozirgi jamiyatlarda ilm-fan, bilim, kompetentsiya, ijodiy tajriba, intellektual texnologiyalar, taraqqiyotning innovatsion yechimlari ustuvorligini ta'kidlasalar-da, yosh avlod orasida aksincha, intellektual salohiyat dinamikasida regressiv jarayonlarni aniqlamoqdalar. Ta'lim tizimi va ijtimoiylashuv jaraynida sodir bo'layotgan deformatsiyalar, ayniqsa, kognitiv ijtimoiylashuv, intellektual ijtimoiylashuv jarayonidagi buzilishlarga sabab bo'lmoqda. Salbiy oqibatlariga sabab bo'luvchi ushbu jarayonning o'z holicha tashlab qo'yilishi "intellektual deviant"lik ko'lamining kengayishi va "intellektni boshqarish" tizimining izdan chiqishiga olib kelishi bashoratlanmoqda. Zero, "bilim" va "intellektual salohiyat" o'rtasida bevosita aloqadorlik bo'lib, bilimning tarkibiy tuzilmasi intellektual salohiyat tizimosti komponentlarini hosil qiladi. Bilimning sifati intellektual salohiyat sifatini belgilaydi va aksincha jarayon kechadi.

Intellektual salohiyatning tizimli modelini qurish orqali intellektni rivojlantirish, yoshlarning intellektual ijtimoiylashuvi va bilimni boshqarishni to'g'ri tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayni muammolarning to'g'ri va samarali yechim yo'llarining topilishi o'z o'rnida ijtimoiy-kasbiy muhitda intellektual salohiyatni rivojlantirish imkonini oshiradi.

#### XULOSA

Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy tizim mexanizmlari to'liq ishlab tursa va unga siyosiy usullar pozitiv ta'sir o'tkazsa, jumladan ijtimoiy rag'batlantirish va iqtisodiy ko'mak berilishi intellektual salohiyatni yuqori sur'atlarda ishlashiga ko'mak beradi. Sh.Eyzenshtatdning fikriga ko'ra, shaxs etuk inson bosqichiga o'tgunga qadar ijtimoiylashib boradi. Shaxsning ijtimoiylashuviga jamiyatning ahloq me'yorlari ta'sir ko'rsatishi shart. Bola bilim olishi, ko'nikma hosil qilgan holda etuklik davriga o'tishi maqsadga muvofiq. Shu bois, ijtimoiylashuv bolaning jinsi va ijtimoiy kelib chiqishiga muvofiq o'zgarishi mumkin. Sh.Eyzenshtatd kishilar etuklik sari ildamlab borar ekan o'zlarini sotsial institutlarga singib ketishi va ularda o'rnatilgan subordinatsiyaga rioya etishlari shart. Sotsial institutlar yoshlar rivojiga xizmat qilsa-da ular tomonidan tartiblanmaydi. Shu tariqa yoshlar jamiyatga ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'lsa-da hokimiyatga nisbatan marginal holatini saqlaydi. Bizning fikrimizcha intellektual salohiyatni takomillashuvida jamiyatdagi ijtimoiylashuv jarayonlarining tartibi tizimli ishlab chiqilishi kerak.

Intellektual salohiyatni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, u inson tafakkur tarzida belgilovchi omil vazifasini o'tashi lozim. Tarixiy davrda vujudga kelib, ma'lum funktsiyalarni bajarayotgan ilmiy tafakkur tarzi intellektual taraqqiyot natijasidir. Mazkur natija ilmiy tadqiqot faoliyatining evristik va epistemologik qirralarini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tafakkur tarzi ilmiy maktabning tadqiqot an'anasini ifodalaydi, olamga qarash va izlanish intentsiyasini belgilaydi. Shunday ekan, ilmiy tafakkur tarzi qadriyat xislatini oladi, ilmiy va ma'naviy qadriyat sifatida fan taraqqiyotining g'oyaviy-ma'naviy omili bo'lib qoladi.

Jamiyatning intellektual salohiyati ziyolilar va undagi aqliy qobiliyat, tafakkur tarzi, bilim darajasi, ilmiy yondashuv, kashfiyot va ularning joriy etilganligi bilan izohlanadi. Ziyolilar – jamiyat intellektual salohiyatining bir qismi bo'lib, taraqqiyotga etakchilik qiluvchi, uni harakatga keltiruvchi, takomillashtiruvchi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi. Intellektual salohiyat bu ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni tavsiflash, jumladan baholashda murakkabliklarni shakllantiradi. Murakkablik shundaki intellektual salohiyat ikki tarkibiy element, ya'ni aniqlangan va aniqlanmagan (latent, yashirin) qismlardan hosil bo'ladi. Intellektual salohiyatni tavsiflashda nazariy, amaliy va eksperimental bilimlar talab etiladi.

YAqin vaqtlargacha intellektual salohiyat deyilganda intellektual mulk nazarda tutilar, uni patentlash, mualliflik huquqi bilan himoyalash, tovar belgisi o'rnatish bilan cheklangan bo'lsa, hozirgi kunda ushbu salohiyat ham aqliy mehnat mahsuli va bilim yig'indisidan hosil bo'luvchi ilmiy hodisa sifatida talqinlanadi.

Modernizatsiyalash sharoitida shakllanib borayotgan bugungi kun kishisining shakllanishi “formativ” bosqichda bo‘lgan yoshlarda yangicha qadriyat, intilish, havaslarning paydo bo‘lishi orqali, tabiiy holat, boshqa so‘z bilan aytganda, innovatsion jamiyat ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga va zamon ruhiga moslashishni talab etadi. Ijtimoiy hayotda kishilar intellektual darajasi ilmiy va tafakkur nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Insonlarning aqliy, ijodkorlik qobiliyati yuqori bo‘lgan qismi “intellektual elita” hisoblanadi.

Birinchiidan, intellektual salohiyat – bu avvalo sub’ektning qobiliyatlari, resurslari va zahiralari, intellektning harakatlantiruvchi kuchlari, motivatsiyalari va ehtiyojlari sohasi, insonning umumiy qobiliyatlari va uning ijodiy faoliyati mahsuldorligini energetik ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchadir;

ikkinchiidan, intellektual salohiyat – bu tizimli xossa bo‘lib, u aniqlanishining ko‘pgina yo‘nalishi va turli darajasiga ega. Inson intellektual salohiyatining mohiyatini intellektning hayotiy faoliyat va intellektning – shaxs o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish asosida ochib berish mumkin. U insonning individ, shaxs va faoliyat sub’ekti sifatida rivojlanishi davomida shakllanadi va jamg‘arilib boradi;

uchinchiidan, intellektual salohiyat tushunchasi inson faoliyatiga tegishli bo‘lib, uning tashuvchisi bo‘lib sub’ekt hisoblanadi. Salohiyat sub’ekt holatini ma’lum turdagi va sifatdagi faoliyatni amalga oshirish imkoniyati nuqtai nazardan tavsiflaydi. Bunday imkoniyatlar jamiyat tomonidan uning tarixiy rivojlanish davomida yaratilib, turli omillar birligi va o‘zaro aloqadorligining majmui bilan belgilanadi. Inson faoliyati salohiyatni ishga solish jarayonidir. Inson qachonki zaruriy bilim va malakaga, ya’ni unga o‘z ishini sifatli bajarish imkonini beruvchi salohiyatga ega bo‘lsa, shundagina u mutaxassis va o‘z kasbining ustasi bo‘lib hisoblanadi;

to‘rtinchiidan, intellektual salohiyat doim sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan jarayonlarni kutishi bilan bog‘liq. Eng oddiy holatda, agar odam unga bo‘lgan ishonchni oqlamasa, bu shuni anglatadiki, yoki unga halaqit berishgan, yoki uning salohiyati noto‘g‘ri baholangan;

beshinchiidan, intellektual salohiyat o‘ta mazmunli va etarlicha murakkab tushunchadir. Oldinlari undan ijtimoiy bilim kategoriyasi sifatida emas, balki ko‘p hollarda boshqa ma’noda, ya’ni metafora sifatida foydalanishgan. Hozirda vaziyat o‘zgardi. Postindustrial dunyoda aynan integrativ butunlik sifatida olinayotgan yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lgan mamlakatlar etakchilik qilmoqda;

oltinchiidan, hozirgi zamondagi jamiyat hayotida intellektual salohiyatga aloqador bo‘lgan fan, ta’lim, yangi axborot texnologiyalarining roli oshib bormoqda. Iqtisodiyotlari bilimga asoslangan (intellektual iqtisodiyot) rivojlangan mamlakatlarning industrialdan yangi industrial, axborotlashgan jamiyatga o‘tishlari, birinchi qatarga inson faoliyatining intellektual jihatlarini olib chiqmoqda.

### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. <http://linguaeterna.com/vocabula/show.php?n=23572>
2. Линн Р. Интеллект и экономическое развитие / Журнал высшей школы экономики. 2008. Т. 5, №2. – С. 92.
3. Головчанская Э. Развитие интеллектуальных ресурсов Республики Беларусь: теория и методология. – Минск: БГУ, 2018. – С. 18-19.
4. Евкова А. Применение нейронных сетей в экономике / Молодой учёный. №5. 2023. – С. 76.
5. Пиаже Ж. Избранные психологические произведения. – М.: Наука, 1969. – С. 85.
6. Олейников А.М. Особенности психолого-педагогического процесса в работах Альфреда Бинье. // Северно Кавказский психологический вестник. 2010. Т.8. №3. – С. 35.
7. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. 2 T. – Toshkent. O‘zbek Sovet Entsiklopediyasi, 2013. – B. 394.
8. Yorqulov H.O. O‘tish davri davlat siyosatida intellektual salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish muammolari. / Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent 2007. – B. 12.
9. Артамонов Г.Н. Системное управление развитием интеллектуального потенциала учащейся молодёжи. Дисс. на соис.уч.степени док. соц. наук. – Москва., 2016. – С. 110.
10. Прошак В.В. Интеллектуальный потенциал трансформации экономики: Автореф. дисс. ... канд.экон.наук. – Львов: 2002. – С. 6.
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-farovonligi-va-rivozhlanish-indeksi-uning-zhamiyatdagi-rni>

12. Лапаев С.П., Есенбаев А.А. Сущность и классификационный состав интеллектуального потенциала. – Оренбург: Вестник ОГУ, 2011. №13 (132). – С. 32.
13. Нигматжанов У.Х. Экономическая теория. – Ташкент: Иқтисод-молия, 2020. – С. 234.
14. Энциклопедия карьера <http://znanie.info/portal/ec-main.html>
15. <https://en.wiktionary.org/wiki/cognitio>
16. Lawson T. Э. Cognition // In: Braun, W. – McCutcheon, R. T. (Eds.). Guide to the study of religion. London – New York: Cassell, 2000. – P. 75-85.
17. Сухарев М.В. Когнитивные процессы в локальном сообществе. // Труды Карельского научного центра, 2012. №6. – С. 29-33.
18. Тихонов А.В. Фундаментальное и прикладное знание / – М.: Канон+РООИ реабилитация, 2014. – 560 с.
19. Ерушкіна Л.В. Административное управление // – Нн: Нижегородский госуниверситет, 2011. – С. 30.
20. Тощенко Ж.Т. Социология управления. – М.: Центр социального прогнозирования и маркетинга, 2011. – С. 253.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000